

INGLIZ TILIDAGI AUTENTIK MATERIALLARNI TANLASHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Ermirzayev Abbos Vaxobjonovich

Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti

Email: ermirzayev89@mail.ru

Annotatsiya: *Autentik materiallar til o'rganish jarayonida tabiiy muhitda, asl maqsad uchun yaratilgan matn, audio va video materiallar bo'lib, ular talabalarga real til muhiti bilan tanishish imkonini beradi. Bunga gazeta maqolalari, podkastlar, blog postlari, intervyular, videoroliklar va radio eshittirishlari misol bo'la oladi. Tadqiqotimizda ko'proq autentik matnlardan foydalanganimiz sababli matnni tanlashga doir zamonaviy talablarga e'tibor qaratdik.*

Kalit so'zlar: *tanlash, tilshunoslik mezon, autentik, matn, tanlash birligi*

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ОТБОРУ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Эрмирзаев Аббос Вахобжонович

Доцент Наманганского государственного института иностранных языков

Email: ermirzayev89@mail.ru

Аннотация: *Аутентичные материалы в процессе изучения языка представляют собой тексты, аудио- и видеоматериалы, созданные в естественной среде для первоначально задуманных целей. Они позволяют студентам познакомиться с реальной языковой средой. Примерами таких материалов являются газетные статьи, подкасты, публикации в блогах, интервью, видеоролики и радиопередачи. В нашем исследовании мы уделили внимание современным требованиям к отбору текстов, так как использовали преимущественно аутентичные тексты.*

Ключевые слова: *отбор, лингвистический критерий, аутентичность, текст, единица отбора.*

MODERN REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF AUTHENTIC MATERIALS IN ENGLISH

Ermirzayev Abbos Vakhobjonovich

Associate Professor at Namangan State Institute of Foreign Languages

Email: ermirzayev89@mail.ru

Abstract: *Authentic materials in the language learning process include texts, audio, and video materials created in a natural environment for their originally intended purposes. They allow students to become familiar with the real language environment. Examples of such*

materials include newspaper articles, podcasts, blog posts, interviews, videos, and radio broadcasts. In our study, we focused on the modern requirements for text selection, as we primarily used authentic texts.

Keywords: *selection, linguistic criterion, authenticity, text, selection unit.*

KIRISH

Dunyoda talabalarning til o'rganish qobiliyatini rivojlantirish, tilni ijtimoiy va madaniy kontekstlarga mos holda qo'llay olish tayyorgarligini oshirish, ularning sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashganlik darajasini aniqlash, o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan va autentik materiallardan foydalanish yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, AQShning Kaliforniya (Kaliforniya State University), Shimoliy Texas (North Texas University), Toronto (Toronto University), Avstriyaning Salzburg (Salzburg University), Rossiyaning Ural davlat federal (Ural Federal University) universitetlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Autentik materiallar til o'rganish jarayonida tabiiy muhitda, asl maqsad uchun yaratilgan matn, audio va video materiallar bo'lib, ular talabalarga real til muhiti bilan tanishish imkonini beradi. Bunga gazeta maqolalari, podkastlar, blog postlari, intervyular, videoroliklar va radio eshittirishlari misol bo'la oladi. Tadqiqotimizda ko'proq autentik matnlardan foydalanganimiz sababli matnni tanlashga doir zamonaviy talablarga e'tibor qaratdik.

Metodik adabiyotlarda "tanlash" deganda, autentik matnlarni tanlashda til va hajm jihatidan ingliz tili o'qituvchisi tomonidan talabalarga sharoitiga mos matnlarni saralash jarayoni va mahsuli tushuniladi. Asliyatdagi matn ingliz tili darsliklariga qo'shimcha sifatida o'qish uchun tavsiya etiladi.

Autentik matnlar o'rganilayotgan til sohiblarining madaniyatini aks ettirishi, muloqot kontekstida o'ziga xos bo'lgan urf-odatlar, axloqiy normalar va muloqot uslublarini o'z ichiga olishi lozim.

Ma'lumki, ingliz tilida o'qilgan matn mazmunini rollarga kirib ijro etish, matndagi qahramonlar fikrini o'z so'zlari bilan bayon etish mustaqil fikrlashga va o'z

fikrini erkin ifodalay olishga undaydi. Shu bois, o'qish ta'lim-tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi.

Autentik matnlar tanlanganda "tanlash manbai", "tanlash mezonlari", "tanlash birligi kabi metodik tushunchalarni hisobga olinishi metodik adabiyotlarda tadqiq qilingan. [1]

Tanlash manbaini aniqlashda til materiali aktiv va passiv minimumlarga ajratiladi. Tilni aktiv bilish deganda barcha asosiy nutq faoliyati turlari hisoblangan – gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv turlarini mukammal bilishni nazarda tutadi. Tilni passiv bilish esa og'zaki va yozma matnni tushuna olishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Autentik matnlar ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanishi muhokama qilinadi. Matnning qiymatini aniqlashda hisob-kitob mezonlari, metodik mezonlar, tilshunoslik mezonlari asosida tanlanishi dalillandi. Respublika va xorijiy metodist olimlar tomonidan takomillashtirilgan matnlarni tanlashga qo'yilgan me'zonlar va talablar o'rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Hisob-kitob mezonida madaniyatga xos so'zlarning matnda ko'p qo'llanishi va keng tarqalganlik xususiyatlari hisobga olinadi. Metodik mezonlarda nutq mavzulari va ingliz tili o'qitish maqsadlari hisobga olinadi. Metodik mezonida oliy ta'lim talabalariga ingliz tili o'qitishdan ko'zlangan maqsad va ushbu bosqich uchun tanlangan nutq mavzulari asos bo'ladi. Ma'lumki, Xorjijiy til va adabiyoti yo'nalishi (ingliz tili) bakalavr yo'nalishi talabalariga ingliz tili o'qitishdan maqsad – ijtimoiy-maishiy, siyosiy, geografik, iqtisodiy matnlarni o'qish hamda dastur doirasida og'zaki nutq malakalarini takomillashtirishdan iboratdir. Mazkur o'quv yurti nutq mavzulari va o'qitish maqsadlari ingliz tili o'qitishda leksik birliklarni tanlashda asos vazifasini o'taydi.[1]

Matnlarni tanlashning tilshunoslik mezonida esa matnlardagi so'zlarning birikishi, so'z yasash imkoniyati, ko'p ma'nolilik, uslub jihatdan chegaralanmaganlik, sinonimlarni chegaralash (yakkalash) va gap tuzishdagi ishtiroki kabilar asos qilib olinadi.

Birikish mezoniga ko'ra matnlarda tanlangan so'z boshqalari bilan imkoni boricha ko'proq birikmaga kirisha olishi, so'z yasash mezonida ulardan ko'proq yangi birliklar yasalishi ko'zda tutiladi.

Uslubda chegaralanmaganlik deganda, matnlarda nutq faoliyatining barcha turlari va turli mavzularda ishlatiladigan so'zlarni tanlash mezonini tushuniladi. Tanlash birligi tushunchasiga ham tegishli metodik talablar qo'yiladi: 1. Tanlash birligi mezonlar va tanlash manbaiga mos tushishi. 2. Matnlar metodik mezonlar asosida ajratib olinishi lozim.

Xorijiy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, autentik matnlar guruhda talabanning ona tilisi va o'rganilayotgan chet tili o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Rogers va Medley ta'kidlaganidek, agar talabalar o'rganilayotgan tilni samarali ravishda qo'llash va o'zlashtirishni istasalar, ular haqiqiy hayotda uchraydigan, tahrirlanmagan va autentik matnlarni o'qishi kerak. Bundan tashqari, autentik matnlar amaliy auditoriyalar uchun juda muhimdir, chunki til kommunikativ maqsadga ega bo'lishi kerak. Biroq, ularning fikriga ko'ra, talabalar bunday ta'sirdan samarali foydalanish uchun tushunish strategiyalari va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishlari zarur.

Shu sababli, Rogers va Medley talabalar o'rganilayotgan til bo'yicha og'zaki yoki yozma manbaaga duch kelganda kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerakligini ta'kidlaydilar. Biroq, bu barcha talabalarga birdek foyda keltirmasligi xavfini tug'diradi, chunki ularning kognitiv va lingvistik qobiliyatlari turlicha bo'lishi mumkin. Shu bois, kommunikativ topshiriqlar talabalarga moslashtirilishi, xilma-xil bo'lishi, nafaqat ma'noga, balki shaklga ham e'tibor qaratishi va autentik matnlarni tushunish jarayonida yuzaga keladigan kognitiv jarayonlarga talabalarni xabardor qilishi lozim.[5]

Bu qarash haqiqatan ham keng tarqalgan e'tiroz va autentik matnlarni tushunish qiyin degan mashhur fikr ortidan paydo bo'ldi, shuningdek, ular barcha darajadagi talabalar uchun mos emas degan qarash mavjud. Rogers va Medley bu fikrga qat'iy qarshi chiqadilar va tushunish tushunchasi yuz foizlik anglashni o'z ichiga olmasligi kerakligini ta'kidlaydilar, bu esa odatda "so'zma-so'z tushunish" deb ataladi. Ularning fikriga ko'ra, boshlang'ich darajadagi talabalar ham autentik

matnlar taqdim etilganda, undagi ba'zi jihatlarni payqashi va dekodlashi mumkin, garchi ular har doim ham barcha ma'lumotni to'liq tushuna olmasalar ham. Ba'zan ular hech bo'lmaganda mavzu yoki autentik matnlarning umumiy mazmunini tushunish darajasiga yetishlari mumkin.[5]

Rogers va Medley tomonidan ta'kidlaganlaridek, bu holat autentik matnlardan foydalanish usulini o'zgartirish zarurligini ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ya'ni, autentik matnlarning o'ziga emas, balki ularni qo'llash texnologiyalariga e'tibor qaratish lozim. Boshqacha aytganda, autentik matnlarni tahrirlash emas, balki bajariladigan topshiriqlarni talabalarningning ehtiyojlariga mos ravishda moslashtirish kerak.

Bundan tashqari, Rogers va Medley autentik matnlar tanlashda quyidagi omillarga e'tibor berishni taklif qiladilar:

Matnning mosligi – autentik matnlar talabalarning kognitiv qobiliyatlari, til darajasi va qiziqishlari bilan qanchalik mos keladi?

Topshiriqning mosligi – talabalarga topshirilgan vazifa ularning haqiqatan ham bajara oladigan ishlari bilan qanchalik mos tushadi?

Kirish ma'lumotlarining tartibi – talabalarning tilni tushunish strategiyalariga asoslanib, material oddiydan murakkabga qarab tartib bilan berilishi kerak.

Bundan tashqari, o'qituvchining vazifasi quyidagilardan iborat bo'ladi: turli manbalardan mos materiallarni tanlash, yuqorida sanab o'tilgan omillarga asoslanib topshiriqlarni ishlab chiqish hamda talabalarga autentik matnlardagi tilni tushunish uchun zarur bo'lgan kognitiv ko'nikma va strategiyalarni o'rgatish.

Boshqa tomondan, Bacon & Finnemann (1990) guruhda autentik matnlarni qo'llashda talabalarning natijadorligini hisobga olish muhimligini ta'kidlagan. Ular autentik matnlarga duch kelgan talabalarning psixologik omillari, masalan, motivatsiya, munosabat va vazifaga jalb bo'lish istagini o'rgangan tadqiqot o'tkazgan. Ularning fikricha, salbiy munosabat talabalarning o'qib tushunish jarayoniga ta'sir qiladi, masalan, agar o'quvchi autentik matnlarni o'qishga qiziqmasa, ularning gapirish darajasi pasayishi mumkin. Natijada, ular o'quv

dasturlari va topshiriqlar talabalarni autentik matnlar bilan ishlashga undash uchun mo'ljallanishi kerakligini ta'kidlaydi.[2]

Shu sababli, Bacon & Finnemann talabalarni autentik matnlarni qabul qilishga undash uchun quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

Autentik materiallar o'qitish jarayonining juda muhim va dastlabki qismi bo'lishi kerak, ular ma'noli tashkiliy materiallar va tushunish tekshiruvlari bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak, talabalarni baholash jarayoniga kiritilishi lozim.

Berardo (2006: P.63) esa autentik matnlarni tanlashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim omillarni sanab o'tadi: a) Mazmunning mosligi: bu talabalarning qiziqishlarini, ehtiyojlariga mosligini va guruhdan tashqarida foydalanish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. b) Foydalanish imkoniyati: autentik materiallarning o'qitish uchun qay darajada mos kelishi, u qanday ishlatilishi va u orqali qanday ko'nikmalar rivojlantirilishi mumkinligi hisobga olinadi. c) Tushunarlilik: bu matnning murakkablik darajasi, lug'at boyligi va qiyinchilik darajasiga bog'liq. d) Taqdimot: material qanchalik autentik ko'rinadi va talabalar e'tiborini jalb qila oladimi?[4]

Autentik materiallar juda muhim va boy manba bo'lib, kommunikativ yondashuvga o'tishda ularni tatbiq etish qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun talabalar autentik matnlarni tushunishda qiynalishlari va ular salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga ko'ra, autentik matnlarni to'g'ri tatbiq etish orqali bu muammolarni yengib o'tish mumkin. Shu sababli, autentik matnlarni tatbiq etishda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

TBL (Task-Based Learning) o'qitish yondashuvi samarali bo'lib, vazifalar talabalarning kommunikativ ehtiyojlariga mos ravishda tuzilishi va autentik matnlar o'zgartirilmasligi kerak. Autentik matnlar maqsadga muvofiq va ehtiyotkorlik bilan tanlanishi lozim. Muhim savol: "Bu qanchalik dolzarb va foydali?" Maqsad aniq belgilangan bo'lishi kerak, shundan keyin autentik matnlarni qidirish mumkin. Talabalarning psixologik jihatlari inobatga olinishi kerak, chunki autentik matnlar ularga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi adabiyotlarda ta'kidlanganidek, autentik materiallar talabalarni o'rganilayotgan til muhitiga jalb qiladi va shu bilan birga, ularni shu tilga oid

madaniyat bilan ham tanishtiradi. Bu masala yillar davomida bahs mavzusi bo'lib kelgan, chunki autentik matnlar va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik aniq, chunki madaniyat talabalarga aynan shu matnlar orqali yetib boradi.

XULOSA

Ingliz tilini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanish til o'rganish jarayonini jonlantirish va talabalarning kompetensiyasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy talablar asosida tanlangan matnlar nafaqat til o'rganishni samarali qiladi, balki madaniyatlararo muloqotni ham rivojlantiradi. Kelajakda til o'rgatish texnologiyalari yanada rivojlanishi bilan autentik matnlarni tanlash mezonlari yanada takomillashishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик қайта ишланган ва тўлдирилган 2 -нашри. - Тошкент: Ўқувчи, 2012. -432 б.
2. Bacon, S. M., & Finnemann, M. D. (1990). A study of attitudes, motivations, and strategies of university foreign language students and their disposition to authentic oral and written output. *Modern Language Journal*, 74(4), 459–473.
3. Мисиров С.А. Касб-хунар коллежларида инглиз тили ўқитишнинг лингводидактик асослари: Пед. фан. номз. ... дис. - Тошкент: ТДПУ, 2007. Б 156
4. Berardo, S. A. (2006). The Use of Authentic Materials in the Teaching of Reading. *The Reading Matrix: An International Online Journal*, 6(2), 60–69..
5. Rogers, C. V., & Medley, F. W. (1998). Language With A Purpose: Using Authentic Materials in the Foreign Language Classroom. *Foreign Language Annals*, 21(5), 467–478..